Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарид Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRQA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHA TLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	



RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nozimov Eldor Anvarovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: eldornozimov@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1580-8654

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimini rivojlantirish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida sug'urta kompaniyalarining raqamli transformatsiya jarayonlari, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida risklarni aniqlash hamda boshqarish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, blockchain va IoT texnologiyalarining sug'urta operatsiyalarida samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritib berildi. Tadqiqot natijalari raqamli sug'urta ekotizimi sug'urta xizmatlarining shaffofligi va tezkorligini ta'minlash bilan birga, O'zbekistonda moliyaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Maqolada InsurTechni rivojlantirish bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakat moliyaviy xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish siyosati bilan uyg'unligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli sug'urta, InsurTech, moliyaviy xavfsizlik, Big Data, sun'iy intellekt, blockchain, IoT.

Abstract. This article examines the role of developing a digital insurance (InsurTech) ecosystem in ensuring financial security in Uzbekistan. The study analyzes the processes of digital transformation in insurance companies, as well as the opportunities for risk identification and management through the use of Big Data and artificial intelligence technologies. In addition, the significance of blockchain and IoT technologies in improving the efficiency of insurance operations is highlighted. The results indicate that the digital insurance ecosystem not only enhances the transparency and efficiency of insurance services but also contributes to strengthening financial stability and security in Uzbekistan. The article proposes strategic recommendations for the development of InsurTech and emphasizes their alignment with the country's financial services modernization policy.

Key words: digital insurance, InsurTech, financial security, Big Data, artificial intelligence, blockchain, IoT.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию роли развития экосистемы цифрового страхования (InsurTech) в обеспечении финансовой безопасности в Узбекистане. В рамках исследования проанализированы процессы цифровой трансформации страховых компаний, а также возможности выявления и управления рисками с использованием технологий Big Data и искусственного интеллекта. Особое внимание уделено значению технологий blockchain и IoT в повышении эффективности страховых операций. Результаты исследования показывают, что экосистема цифрового страхования способствует повышению прозрачности и оперативности страховых услуг, а также укреплению финансовой стабильности и безопасности в Узбекистане. В статье разработаны стратегические предложения по развитию InsurTech и обоснована их согласованность с политикой модернизации сферы финансовых услуг страны.

Ключевые слова: цифровое страхование, InsurTech, финансовая безопасность, Big Data, искусственный интеллект, blockchain, IoT.



KIRISH

Sug'urta bozori har qanday iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biridir. So'nggi yillarda global sug'urta sanoati jadal raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonda Big Data, sun'iy intellekt (AI), blockchain hamda Internet of Things (IoT) kabi raqamli texnologiyalar risklarni baholash va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Mazkur tendensiyalar O'zbekistonda ham yaqqol namoyon bo'lib, sug'urta kompaniyalari raqamli transformatsiyani joriy etish orqali xizmatlarining tezkorligi va shaffofligini ta'minlamoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotning raqamlashtirilishini kengaytirish hamda moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Shu bilan birga, O'zbekiston sug'urta bozori hozirgi bosqichda raqamli transformatsiya jarayonida bo'lib, InsurTech ekotizimini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimini rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilish va uning moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli sug'urta tizimi nafaqat sug'urta xizmatlari sifatini oshiradi, balki mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqola ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, "O'zbekiston-2030" strategiyasi hamda Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarga to'liq mos keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimini shakllantirish va O'zbekistonda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli bo'yicha ko'plab olimlarning qarashlari o'rganildi. Jumladan, yosh olimlardan J. Baxtiyarov raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiya sharoitida sug'urta xizmatlarini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilgan [2]. U sug'urta bozorida texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi, mijozlar talabining o'zgarishi va onlayn xizmatlar ulushining oshishi ushbu jarayonning dolzarbligini belgilashini ta'kidlaydi. Tadqiqotlarida sun'iy intellekt, Big Data, mobil platformalar va avtomatlashtirilgan servis modellarining sug'urta faoliyatiga ta'siri o'rganilgan.

Bundan tashqari, N.R. Murtazayev O'zbekistonda sug'urta bozorini samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha izlanishlar olib borgan [3]. Olim moliya bozorini rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish va sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalarini atroflicha o'rgangan.

Sug'urta bozorini rivojlantirishda A.I. Donayeva tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimini shakllantirish va rivojlantirishda fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari bo'yicha fikrlarni ilgari suradi [4].

Shuningdek, H.M. Mirziyotova o'z maqolasida O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolarini tahlil qiladi [5]. Mamlakatda sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi dolzarb masalalar va rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan.

N.K. Shaislamova esa sug'urta investitsiya risklarini boshqarishning samarali vositasi sifatida o'rganadi [6]. Olim milliy iqtisodiyotda investitsiya risklarini boshqarishda sug'urtaning o'rnini yoritadi. Shuningdek, sug'urta kompaniyasining raqobatbardoshligi va investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Mazkur ma'lumotlarga tayangan holda investitsiya faoliyatini sug'urta orqali boshqarish mexanizmlari bo'yicha ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Yana bir olim, O.M. Shupilo, raqamli sug'urta ekotizimini loyihalash bo'yicha tadqiqotlar olib boradi [7]. Olim raqamli ekotizimlar sug'urta bozorida qanday muhim rol o'ynashi va kompaniyalar mahsulotlarini takomillashtirishda texnologiyalardan qanday foydalanishini tahlil qiladi.

T.G. Maglinova va O.M. Shupilo zamonaviy sharoitlarda sug'urta texnologiyasi trendlari bo'yicha fikrlarni ilgari suradi [8]. Shu bilan birga, B. U. Kamilov sug'urta ekotizimlarini yaratish samaradorlikni oshirish va milliy sug'urta bozorini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi sifatida baholaydi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimini shakllantirish va uning moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini o'rganish uchun kompleks ilmiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqot analitik tahlil asosida olib borilib, sug'urta kompaniyalarining raqamli transformatsiya jarayoni hamda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash holatlari batafsil o'rganildi. Ushbu metod orqali global va mahalliy InsurTech tajribasi solishtirilib, amaliyotdagi samaradorlik aniqlangan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi besh yil ichida raqamli transformatsiya jarayonini boshlagan bo'lsa-da, InsurTech ekotizimi hali to'liq shakllanmagan. Analitik va statistik tahlil natijalari sug'urta kompaniyalarining atigi 35–40% faqat raqamli platformalardan faol foydalanayotganini, shuningdek, Big Data va sun'iy intellekt yordamida risklarni baholash imkoniyati cheklanganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, blockchain texnologiyasi faqat ayrim moliyaviy operatsiyalarni optimallashtirishda qo'llanilmoqda va IoT qurilmalari orqali sug'urta predmetlarini monitoring qilish imkoniyati kam kompaniyalarda mavjud.

Komparativ tahlil natijalari O'zbekiston tajribasini rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda quyidagi asosiy farqlarni aniqladi: rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari 70–80% xizmatlarni raqamlashtirgan, sun'iy intellekt yordamida risklarni prognozlash tizimlari samarali ishlaydi va blockchain operatsiyalarni shaffoflashtiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sug'urta bozori raqamli texnologiyalarni keng joriy qilishda katta potentsialga ega, ammo ma'lum infratuzilma va malaka yetishmovchiligi mavjud.

Ekspert baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, sug'urta mutaxassislari va moliya menejerlari raqamli transformatsiyaning samaradorligini yuqori baholashadi, ammo joriy etish jarayonida kiberxavfsizlik, xodimlar malakasi va texnologik resurslar yetishmasligi asosiy cheklovlar sifatida qayd etilgan. SWOT-tahlil natijalari kuchli tomonlar sifatida raqamli xizmatlar tezkorligi, ma'lumotlarni qayta ishlash va xizmatlarni shaffof qilish imkoniyatini, zaif tomonlar sifatida esa infratuzilma cheklovlari va texnologik malaka yetishmasligini ko'rsatdi. Imkoniyatlar sifatida innovatsion xizmatlar, yangi sug'urta mahsulotlarini joriy etish va xalqaro integratsiya, xavflar sifatida esa kiberxavfsizlik, qonunchilik cheklovlari va texnologik qaramlik qayd etilgan.

Statistika tahlili raqamli sug'urta tizimi joriy etilgan kompaniyalarda xizmat ko'rsatish tezligi 25–30% ga oshganini, operatsion xarajatlar esa 15–20% ga kamayganini ko'rsatdi. Bu raqamlar raqamli transformatsiyaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi va O'zbekiston sug'urta tizimida moliyaviy xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sug'urta bozori uchun raqamli transformatsiya strategiyasi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi muhim: Big Data va AI yordamida risklarni prognozlash, blockchain va IoT texnologiyalari orqali operatsiyalarni shaffoflashtirish va monitoring tizimlarini joriy etish. Shu tarzda, InsurTech ekotizimi moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash, xizmat sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sug'urta bozori raqamli transformatsiya jarayonida sezilarli o'sish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimi nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki risklarni aniqlash va boshqarishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Big Data va sun'iy intellekt yordamida sug'urta kompaniyalari risk prognozlarini tezkor va aniq shaklda ishlab chiqishi mumkin, bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ekspert baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda InsurTech ekotizimini rivojlantirishda asosiy cheklovlar texnologik infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalari va davlat organlari o'rtasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, blockchain va IoT texnologiyalari orqali sug'urta operatsiyalarini shaffoflashtirish va monitoring tizimlarini rivojlantirish moliyaviy xavfsizlikni oshirishda strategik ahamiyatga ega.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlardagi InsurTech ekotizimi O'zbekiston tajribasiga qaraganda kengroq va tizimli shakllangan. Bu esa mamlakatimiz sug'urta kompaniyalariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish va global sug'urta standartlariga moslashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sug'urta bozori uchun strategik tavsiyalar quyidagilar bo'lishi mumkin: raqamli platformalarni keng joriy etish, xodimlarning texnologik malakasini oshirish, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish va innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli sug'urta tizimining joriy etilishi xizmat ko'rsatish tezligini 25–30% ga oshirgan va operatsion xarajatlarni 15–20% ga kamaytirgan. Bu raqamlar InsurTech ekotizimining nafaqat nazariy, balki amaliy samaradorligini ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni moliyaviy barqarorlikni oshirish, mijozlarga xizmat sifatini yaxshilash va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda InsurTech ekotizimini rivojlantirish orqali sug'urta tizimi nafaqat zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashadi, balki mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, xizmatlarni shaffof va tezkor qilish hamda xalqaro raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ilmiy yangilik sifatida O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimi va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash mexanizmlarini tizimli tarzda birlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimining shakllanishi O'zbekiston moliya bozorida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini mustahkamlaydi.



Avvalo, sug'urta xizmatlarini onlayn platformalar orqali ko'rsatish polis rasmiylashtirish, to'lovlarni amalga oshirish va zararlarni qoplash jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, sun'iy intellekt, Big Data tahlili va blockchain asosidagi yechimlar risklarni aniqlash va baholash aniqligini oshirmoqda. Natijada, sug'urta kompaniyalarining xarajatlari qisqarib, xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, InsurTech yechimlari quyidagi yo'nalishlarda moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda:

- Risklarni aniqlash va baholashning aniqligi oshmoqda. Sun'iy intellekt algoritmlari mijozlarning xatti-harakatlari va moliyaviy tarixini tahlil qilish orqali sug'urta hodisalari ehtimolini aniqlaydi, bu esa sug'urta portfelining sifati yaxshilaydi.
- Firibgarlik xavfi kamaymoqda. Raqamli identifikatsiya va blockchain texnologiyalari orqali tranzaksiyalar shaffofligi ta'minlanadi, bu sug'urta bozorida moliyaviy intizomni kuchaytiradi.
- Moliyaviy inkluzivlik kengaymoqda. Onlayn platformalar orqali sug'urta xizmatlarining hududiy qamrovi kengaymoqda, ayniqsa chekka hududlarda aholining sug'urta xizmatlariga kirish imkoniyati yaxshilanmoqda.
- Operatsion samaradorlik oshmoqda. Raqamli hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari xarajatlarni kamaytirib, kompaniyalar rentabelligini oshirmoqda.

Xalqaro tajribada InsurTech ekotizimining rivojlanishi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sifatida baholanadi. Masalan, Lemonade sun'iy intellekt asosida da'volarni bir necha daqiqa ichida ko'rib chiqish amaliyotini joriy etgan bo'lsa, Ping An Insurance raqamli platformalar orqali risklarni kompleks boshqarish modelini shakllantirgan. Ushbu tajribalar O'zbekistonda ham InsurTech infratuzilmasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida tahlillar quyidagilarni ko'rsatdi:

- Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda;
- Elektron polislar va onlayn to'lov tizimlari joriy etilishi operatsion xavflarni kamaytirmoqda;
- Sug'urta bozorida ma'lumotlar bazasini integratsiyalash zarurati mavjud;
- Kiberxavfsizlik tahdidlari raqamli ekotizim rivojlanishida asosiy risk omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, raqamli sug'urta ekotizimining rivojlanishi O'zbekistonda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni risklarni kamaytirish, shaffoflikni oshirish va sug'urta xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali milliy moliya tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda raqamli sug'urta (InsurTech) ekotizimini shakllantirish va uning moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini tizimli ravishda o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, InsurTech ekotizimi sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirish, risklarni aniqlash va boshqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Big Data, sun'iy intellekt, blockchain va IoT texnologiyalarini joriy etish orqali sug'urta xizmatlari tezkor, shaffof va mijozlar ehtiyojlariga mos tarzda amalga oshiriladi.

Ekspert baholash va SWOT-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonining asosiy cheklovlari texnologik infratuzilma yetishmasligi, malakali kadrlar va kiberxavfsizlik bilan bog'liq. Shu bilan birga, imkoniyatlar sifatida innovatsion sug'urta mahsulotlarini yaratish, xalqaro integratsiya va raqamli xizmatlarni kengaytirish mavjud.

Maqola asosida quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Sug'urta kompaniyalarida raqamli platformalarni keng joriy etish va Big Data hamda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida risklarni prognozlash tizimlarini rivojlantirish;
- Blockchain va IoT texnologiyalarini sug'urta operatsiyalarida shaffoflik va monitoringni ta'minlash maqsadida keng qo'llash;
- Kiberxavfsizlik bo'yicha standartlarni joriy etish va xodimlarning texnologik malakasini oshirish bo'yicha doimiy treninglar tashkil etish;
- Innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish orqali yangi mijoz segmentlarini jalb qilish va bozor raqobatbardoshligini oshirish;
- Davlat organlari va sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqamli transformatsiya bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish.

Shu tavsiyalar amalga oshirilganda, O'zbekiston sug'urta bozori nafaqat zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashadi, balki moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash, xizmat sifati oshirish va xalqaro standartlarga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqot ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimi va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Baxtiyarov J. (2025). Raqamli transformatsiya sharoitida sug'urta xizmatlarini modernizatsiya qilish yo'nalishlari. Modern Science and Research, 4(11), 115–119. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/139391>
3. Murtazayev N.R. (2024). O'zbekistonda sug'urta bozorini samaradorligini oshirish masalalari. Экономика и социум, 4-1(119). <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-sug-urta-bozorini-samaradorligini-oshirish-masalalari>
4. Donayeva A.I. (2022). Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimini shakllantirish va rivojlantirishda fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari. ORIENSS, 11. <https://cyberleninka.ru/article/n/tadbirkorlik-tavakkalchiligini-sugurtalash-tizimini-shakllantirish-va-rivojlantirishda-fuqarolik-huquqiy-tartibga-solish-muammolari>
5. Mirziyatova H.M. (2023). O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari. Scientific Progress, 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-sug-urta-bozorini-rivojlantirish-va-boshqarish-muammolari>
6. Shaislamova N.K. (2022). Sug'urta investitsiya risklarini boshqarishning samarali vositasi sifatida. Экономика и финансы (Узбекистан), 2(150). <https://cyberleninka.ru/article/n/sug-urta-investitsiya-risklarini-boshqarishning-samarali-vositasi-sifatida>
7. Shupilo O.M. (2025). Proektirovanie tsifrovoy strakhovoy ekosistemy. ЕГИ, 3(59). <https://cyberleninka.ru/article/n/proektirovanie-tsifrovoy-strakhovoy-ekosistemy>
8. Маглинова Т.Г. & Шупило О.М. (2023). Тенденции страховых технологий в современных условиях. ЕГИ, 3(47). <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-strahovyh-tehnologiy-v-sovremennyh-usloviyah>
9. Камилов Б.У. (2023). Создание страховых экосистем как важнейшее направление повышения эффективности и трансформации национального страхового рынка. Экономика и туризм, 5(13). <https://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/184>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
